

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**XASANOVA SHAXZODA ABDUJABBOR QIZI**

**MO YANNING “MUSALLAS MAMLAKATI” ROMANI O‘ZBEKCHA  
TARJIMASIDA FE’L FRAZEOLOGIZMLARNING BERILISHI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

UO‘K: 81'25'37:811.512.133  
КБК: 81.2-2/7 (5O'zb) X – 24

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Xasanova Shaxzoda Abdujabbor qizi**

Mo Yanning “Musallas mamlakati” romani o‘zbekcha tarjimasida fe’l frazeologizmlarning berilishi..... 3

**Хасанова Шахзода Абдужаббор қизи**

Передача глагольных фразеологизмов в узбекском переводе романа Мо Яня “Страна вина” ..... 23

**Xasanova Shaxzoda Abdujabbor qizi**

The Representation of Verb Phraseological Units in the Uzbek Translation of Mo Yan’s Novel “Republic of Wine” ..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 53

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**XASANOVA SHAXZODA ABDUJABBOR QIZI**

**MO YANNING “MUSALLAS MAMLAKATI” ROMANI O‘ZBEKCHA  
TARJIMASIDA FE’L FRAZEOLOGIZMLARNING BERILISHI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Fil5386 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasida ([www.tsuos.uz](http://www.tsuos.uz)) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ismatullayeva Nargiza Rasuljanovna**  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Ziyamuhamedov Jasur Tashpulatovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Qurbonova Gulsara Sodiqovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 raqamli Ilmiy kengashning “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025-yil soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent, Shahrisabz ko‘chasi, 16-uy. Tel: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; e-mail: [info@tsuos.uz](mailto:info@tsuos.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.M. Mannonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filol.f.d., professor

**R.A. Alimuhamedov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi v.v.b., filol.f.d. (DSc), dotsent

**X.Z. Alimova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,  
professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tarjimashunosligida frazeologizmlar muammosi, ularning milliy-madaniy xususiyatlari va shakliy-mazmuniy tuzilishini o'rganish doimiy dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. XX asrda frazeologiyani o'rganish borasida jahon ilmida katta ishlar amalga oshirildi. So'nggi yillarda frazeologizmlar masalasi tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, psixolingvistika, madaniyatlararo muloqot, parallel til korpuslarini yaratish va amaliy tarjima sohalarining predmetiga aylandi. Xususan, frazeologizmlarning struktur-semantik xususiyatlarini o'rganish tarjima jarayonida muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

Dunyo tarjimashunosligida frazeologik birliklar, xususan fe'l frazeologizmlarning tarjimadagi ahamiyati doimiy ravishda e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Fe'l frazeologizmlar insonning harakati, holati, ichki kechinmalarini ifodalashda faol qo'llaniladi. Shu bois fe'l frazeologizmlarni chuqur o'rganish til, milliy tafakkur va xalqning tarixiy xotirasini anglash, shuningdek, frazeologik birliklarni o'quv jarayoniga tatbiq etishda dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizda so'nggi yillarda keng qamrovli integratsiyalashuv jarayonida turli xalqlar o'rtasidagi o'zaro muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari, umumlisoniy belgilari, leksik va frazeologik lug'at boyligining o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish chet tillarini o'rganishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, xitoy va o'zbek tillaridagi frazeologizmlar tarjimachilik, xorijiy tillarni o'rganish va madaniyatlararo muloqotda ham bir qator tafovut va murakkabliklarni yuzaga keltirayotgani ikki tilni chog'ishtirish va bu tillardagi o'ziga xosliklarni tadqiq etishdek muhim vazifalarni o'rta qo'yimoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Frazeologizmlar ancha avval tadqiqot obyektiga aylangan. Xususan, fe'l frazeologizmlari lisoniy xususiyatlari yevropa tilshunosligida J.F.Rippert, Sh.Balli, S.Fillmor, P.Kay va M.O'Konnor, A.Makkai,

S.Gledhill<sup>1</sup>, tarjimashunoslikda M.Larson, P.Nyumark, A.Adelnia, H.Dastjerdi, A.Shojaei tomonidan o‘rganilgan<sup>2</sup>.

Xitoyshunoslikda ham Jou Zumo, Vang Dechun, Ma Guofan, Tang Songbo, Sun Veyjang, Liu Shusin, Sui Silyan, Syuy Yaomin, Li Singyan, Lin Ziyuy<sup>3</sup> singari olimlarning tadqiqotlari hamda lug‘atlari<sup>4</sup> frazeologizmlarga bag‘ishlangan.

Rus, tojik tilshunosligi va tarjimashunosligida A.M.Grigorash, V.N.Teliya, M.I.Gritsko, Y.I.Retsker, I.E.Gorodetskaya, P.P.Vetrov, F.A.Axmedova<sup>5</sup> kabilar frazeologizmlarni tadqiqot obyekti qilib olganlar, fe‘l frazeologizmlar va ularning tuzilishi, semantikasi va uslubiy xususiyatlarini ancha batafsil o‘rgananganlar.

Respublikamizda, umuman, frazeologizmlar, xususan, fe‘l frazeologizmlar Sh.Rahmatullayev, A.Rafiyev, M.Umarxo‘jaev, A.G‘aniyev, A.Mamatov, B.Yo‘ldoshev, Sh.Usmonova, M.Xoliqova, Sh.G‘aniyeva, B.Boltayev<sup>6</sup> va boshqa

---

<sup>1</sup> Rippert J.F. Papers in Linguistics. – London; Oxford University Press, 1957. – 233 p.; Балли Ш. Французская стилистика. – М.: Наука, 1977; Fillmore C.J., Kay P., O’connor M.C. Regularity and idiomaticity in grammatical constructions// Language, 1988. Vol. 64. – P. 501-538; Makkai A. Idiomaticity as the essence of language. In Actes du XVème congrès international des linguistes: Presses universitaires de l’Université laval, Québec, 1992. – P. 361-365.; Gledhill C. Collocation and genre analysis. The discourse function of collocation in cancer research abstracts and articles. In Zeitschrift für Anglistik und Amerikanistik. Vol. 1/1995. – P. 1-26.

<sup>2</sup> Larson M.L. Meaning Based Translation: A Guide to Cross Language Equivalence. London and New York: University Press of America, 1984; Newmark P. A textbook on translation New York, London: Prentice Hall, 1988; Adelnia A., Dastjerdi H. V. Translation of idioms: A hard task for the translator //Theory and practice in language studies, 2011.Vol.1. – P. 879-881; Shojaei A. Translation of idioms and fixed expressions: Strategies and difficulties //Theory and Practice in Language Studies, 2012. Vol. 2, №. 6. – P. 1220-1229.

<sup>3</sup>周祖谟 谈“成语”。《语文学学习》. 1955. №1; 王德春《词、词组、熟语》，上海外国语学院季刊. 1958, № 3; 马国凡《谚语的特点》。《中国语文》. 1960. №11; 唐松波.《熟语与成语的种属关系》中国语文. 1960; 孙维张《汉语熟语学》. 1989; 刘树新《固定语及其类别》. 1993; Цуй Силян. Китайские шую и цивилизация. 1997; 徐耀民《成语的划界、定型和释义问题》//《中国语文》1997. №1; 李行健《成语规范问题》//《辞书研究》2001; Линь Цзыюй. Сопоставительный анализ фразеологизмов с компонентом животных в русском и китайском языках: Дисс. канд.филол.наук. –Уфа, 2020.

<sup>4</sup>刘松筠, 李行健, 向光忠. 中华成语大辞典. 长春:吉林出版社, 2001年, 1376页。叶芳来:俄汉谚语俗语词典, 北京:商务印书馆, 2005年,604页。王兴国, 于波:汉语成语大词典, 北京:华语教学出版社, 2007年, 1971页。温瑞政: 中国惯用语大辞典, 上海辞书出版社, 2011年, 1040页。温瑞政:中国歇后语大辞典, 上海辞书出版社, 2011年, 1395页。

<sup>5</sup> Григораш А.М. Структурный и семантико-стилистический анализ глагольной фразеологии русского языка (в сопоставлении с украинским): Дисс. канд.филол.наук. – Киев, 1984; Грицко М.И. Глагольные фразеологизмы русского, английского и французского языков в сопоставительном аспекте: Дисс. ...канд. филол. наук. – Новосибирск, 2005; Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – М.: Просвещение, 2006; Ветров П.П. Фразеология современного китайского языка. Синтаксис и стилистика. – М.: Московская книга, 2007; Ахмедова Ф.А. Глагольные фразеологизмы, обозначающие чувства в русском, английском и таджикском языках: Дисс. канд. филол. наук. – М., 2013.

<sup>6</sup> Рахматуллаев Ш.У. Об одной особенности грамматической структуры фразеологических единиц в современном узбекском языке // Вопросы фразеологии. Труды Самаркандского гос. ун-та, новая серия, вып. 106, 1961; Рафиев А. Ўзбек тили фразеологик бирликларнинг структурал-функционал хусусиятлари. Филол. фанл. док...дисс. автореф. – Тошкент, 1982; Умарходжаев М.И. Основы фразеографии / Андиж. гос. пед. ин-т языков. – Ташкент: Фан, 1983; Ганиев А.Г. Очерки по глагольной фразеологии литературного пушту (в свете современной теории устойчивых словосочетаний). –Ташкент: Фан, 1985; Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари: Дисс. ...д-ра. филол.наук. – Тошкент, 1991; Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-усlubий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1993; Усмонова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1998; Халикова М.К. Фразеология как форма отражения национального менталитета в языковой картине мира: (на материале русского и узбекского языков): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1999; Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Ганиева Ш.А. Ўзбек фразеологизмлари структураси (шаклий ва мазмуний моделлаштириш): Автореф. дисс. фил.фан.б.фал.док. (PhD). – Фарғона, 2017; Болтаева Б.И. Ўзбек тили фразеологик бирликларининг трансформацияси. (семантик-прагматик таҳлил): Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Самарканд, 2019.

tilshunoslar tomonidan lingvistik aspektda tadqiq qilingan. O‘zbek xitoyshunosligida esa S.Nosirova, S.Mustafayeva, T.Akimov, F.Xasanova, U.Mavlyanovalarning<sup>7</sup>, frazeologizmlarning tarjimada berilishi muammolari bo‘yicha G‘.Salomov, J.Sharipov, X.Hamidov, N.Ismatullayeva, S.Saidakbarova<sup>8</sup> singari tarjimashunoslar tadqiqotlari mavjud.

O‘zbek xitoyshunoslari T.Akimov, J.Kiraubayevlar tomonidan tuzilgan “汉乌俄 成语词典” (Xitoycha-o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘at)<sup>9</sup> O‘zbekistonda xitoy tili frazeologizmlari tadqiqidagi dastlabki qadam bo‘lgan. Shuningdek, Li Yamei va O.Ochilov tomonidan tuzilgan “O‘zbekcha-xitoycha va xitoycha-o‘zbekcha maqol, matal, iboralar lug‘ati”<sup>10</sup> ham frazeologizmlarni o‘rganish borasida yuqoridagi kabi qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, muayyan badiiy asardagi xitoycha frazeologizmlarning tarjimada berilishi muammolarini o‘rganishni kuchaytirish o‘zbek xitoyshunosligida muhim vazifalardan biri bo‘lib turibdi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Sharq mamlakatlari tillarini o‘rganish va tilshunoslikning nazariy masalalari” hamda “Tarjimashunoslik, qiyosiy tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslikning dolzarb muammolari” yo‘nalishida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** xitoy tilidagi fe‘l frazeologizmlarda variantlilik, polisemiya, sinonimiya va antonimiya hodisalarining tarjimada ifodalanishini, shuningdek, muqobilli hamda muqobilsiz fe‘l frazeologizmlarning tarjima xususiyatlarini Mo Yanning “Musallas mamlakati” asari misolida ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardir:

Mo Yanning “Musallas mamlakati” asarida uchraydigan fe‘l frazeologizmlardagi variantlilik va polisemiyaning tarjimadagi ifoda usullarini yoritish;

asardagi fe‘l frazeologizmlarda sinonimiya va antonimiya hodisalarining tarjimadadi o‘rnini belgilash;

xitoy tilida ekvivalenti va muqobili mavjud fe‘l frazeologizmlarni o‘zbek tiliga o‘girishning o‘ziga xosliklarini asoslash;

muqobilsiz fe‘l frazeologizmlarni tarjimada berish usullarini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekt**i sifatida Mo Yanning 2004-yil nashr etilgan “Musallas mamlakati” romani hamda uning 2018-yil A.Fayzullo va S.Alijonova tomonidan o‘zbek tiliga qilingan tarjimasidagi fe‘l frazeologizmlar tanlangan.

---

<sup>7</sup> Насирова С. Ҳозирги хитой тилининг ижтимоий-сиёсий терминологияси: генезис ва тараққиёт. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2023; Мустафаева С. Хитой тили тилшунослик терминлари тизимининг шаклланиши ва тараққиёти. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2023; Акимов Т. Хитой тилидаги соматик фразеологизмлар. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2023; Хасанова Ф. Хитой байхуа тилининг лексик-семантик ва грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2023; Мавлянова У. Хитой тилида сонларнинг семантикаси: лингвомаданий таҳлил. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2023.

<sup>8</sup> Саломов Ф. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966; Шарипов Ж. Бадий таржима дўстлик курали. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974; Ҳамидов Х.Х. Турк фразеологияси масалалари. Монография. – Тошкент: Баёз, 2019; Исматуллаева Н.Р. Хитой ва ўзбек тилларида лақналар. –Тошкент: Nodirabegim, 2021; Саидакбарова С.П. Инглиз ва ўзбек лингвомаданиятида гастрономик фразеологизмлар. – Тошкент: Effect-D, 2022.

<sup>9</sup> Akimov T., Kiraubayev J.A. Xitoycha-o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘at. – Toshkent: 2002.

<sup>10</sup> Li Yamei va O.Ochilov. O‘zbekcha-xitoycha va xitoycha-o‘zbekcha maqol, matla, iboralar lug‘ati. – Pekin: Xalq nashriyot, 2011.

**Tadqiqotning predmetini** xitoy tilidagi “Musallas mamalakati” asaridagi fe’l frazeologizmlarni o‘zbekcha tarjimada berish usullari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, statistik, chog‘ishtirma, kognitiv hamda lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

xitoy tilidagi variantdosh fe’l frazeologizmlarning o‘zbek tilida identik tarjima variantini berish, polisemiya sharoitida esa kontekstual tarjima usulining qo‘llanilishi aniqlangan;

fe’l frazeologizmlar ma’noviy, ekspressiv-stilistik, funksional xususiyatlarga ko‘ra o‘z sinonimlariga ega bo‘lishi, qarama-qarshilik xususiyatiga ko‘ra esa mantiqiy va semantik antonim shakllarining mavjud bo‘lishi asoslangan;

xitoy tilidagi o‘zbek tilida ekvivalenti va muqobili mavjud fe’l frazeologizmlar son jihatdan kamligi va har doim ham tarjimada fe’lli ibora shaklida berilmasligi aniqlangan;

xitoycha muqobilsiz fe’l frazeologizmlarni o‘zbek tiliga o‘girishning kalkalash, tasviriy (eksplikatsiya) usul, ma’lumot qo‘shish, tushirib qoldirish va so‘z yoki so‘z birikmasi vositasida berish kabi tarjima usullari orqali amalga oshirilishi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

xitoy tilidagi fe’l frazeologizmlarni semantik va tarjima xususiyatlarini tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar frazeologiya sohasi uchun muhim ilmiy-nazariy ma’lumotlar berishi, tilshunoslik nazariyasi, leksikologiya, leksikografiya, tarjimashunoslik, lingvomadaniyatshunoslik kabi fanlar bo‘yicha yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qiladi.

fe’l frazeologik birliklarning chog‘ishtirma tahlili ikki millat dunyoqarashi, olamni idrok etishining o‘ziga xosligini yoritishga, til o‘rganuvchilarda frazeologik ma’noni anglash kompetensiyasini shakllantirishga asos bo‘ladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** muammoning aniq qo‘yilishi, chiqarilgan xulosalarning qat’iyiligi, qo‘llanilgan yondashuv, usul va nazariy ma’lumotlarning ishonchli manbalardan olingani, tahlilga tortilgan lisoniy materiallarning asoslanganligi, keltirilgan tahlil, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xitoy tilidagi frazeologik birliklarning turli aspektda tadqiq etilganligi va uning tarjimashunoslik, frazeologiya, sintaksis, tilni sistema sifatida o‘rganish bilan bog‘liq ilmiy-nazariy qarashlarni to‘ldirishi, frazeologizmlarning shakllanishi bilan bog‘liq nazariy qarashlarni yanada boyitishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati frazeologizmlarning boshqa frazeologik va aforistik birikmalardan farqlash mezonlarini belgilashga ko‘mak berishi, oliy o‘quv yurtlarining xitoy tili va adabiyoti, xitoycha-o‘zbekcha tarjimachilik sohalari bilan bog‘liq fakultetlarida xitoy tilidan amaliy va nazariy dars mashg‘ulotlari o‘tkazishda, shuningdek, tarjima amaliyoti darslari, o‘zbek va xitoy adabiy aloqalari bo‘yicha maxsus kurslar, maxsus seminarlar uchun o‘quv qo‘llanmalari va darsliklar yaratishda manba sifatida qo‘llanilishi, xulosa va tavsiyalardan frazeologiya, semasiologiya, xitoy

va o‘zbek tillarining qiyosiy grammatikasidan maxsus kurslar, xitoy tili leksikologiyasi bo‘yicha ma’ruza matnlari, darsliklar yaratish, xitoy tilining frazeologik lug‘ati, badiiy asar mualliflarining frazeologik leksikasi lug‘atini tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xitoy tilida fe‘l frazeologizmlarning turlari, semantik jihatlari va o‘zbek tiliga tarjima qilish xususiyatlarini tadqiq etish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

xitoy tilida frazeologizmlari shakllanishining omillari Xitoydagi ijtimoiy qatlamlar nutqida qo‘llanadigan turg‘un birliklar bo‘yicha olingan natijalar hamda xulosalardan F1-136 “O‘zbekiston va xitoy madaniy obidalari” (Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2025-yil 2-martdagi 02-04-02/353-sonli ma’lumotnomasi) o‘quv qo‘llanmasini tayyorlashda foydalanilgan. Ilmiy natijalarning tatbiqi xitoy va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning tilshunoslikdagi o‘rni, ularning semantikasi hamda tarixiy taraqqiyotini ochib berishga xizmat qilgan;

xitoy va o‘zbek tillarida frazeologizmlarning tasnifiy xususiyatlari, ular o‘rtasidagi struktur va semantik tafovutlar masalalariga oid tadqiqot natijalaridan Xitoy Xalq Respublikasi Pekin Markaziy millatlar universiteti Akademik tadqiqotlar bo‘limida RX-167201960 “Masofaviy ta’lim tashkillashtirish va isloh qilish (O‘zbek tili grammatikasi 1)” (2020-2023-yillar) loyihasida foydalanilgan (Xitoy Xalq Respublikasi Pekin Markaziy millatlar universitetining 2023-yil 15-fevraldagi ma’lumotnomasi). Olingan natijalar Xitoy Xalq Respublikasi Pekin Markaziy millatlar universiteti (Minzu university of China)da o‘zbek tili va madaniyati bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishda hamda xitoyliklar uchun “O‘zbek tili” darsligini tayyorlashga xizmat qilgan;

hozirgi xitoy tilidagi fe‘l frazeologizmlarning leksik-grammatik xususiyatlari va o‘zbek tiliga tarjimasi masalalariga oid tahliliy fikrlar va nazariy xulosalardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradiokanali tomonidan tayyorlangan ayrim ko‘rsatuvlar hamda “Foreign Languages” telekanalining “Good morning, Uzbekistan!” ko‘rsatuvi ssenariylarini yozishda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DUKning 2024-yil 10-yanvardagi 01-24-54-son ma’lumotnomasi). Olingan natijalar tatbiqi efirga uzatilgan ko‘rsatuvlarning ilmiy dalillarga boy bo‘lishi va ilmiy-ommabopligini ta’minlagan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 13 ta, jumladan, 5 ta respublika, 8 ta xalqaro va boshqa ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 4 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 147 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan; tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti belgilangan; respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan; tadqiqot natijalarining joriylanishi, e'lon qilingan ishlar, ishning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning I bobi **“Tarjimashunoslikda frazeologizmlar tadqiqining nazariy asoslari va Mo Yan asari tarjimalari”** deb nomlangan. Unda “Frazeologizmlarning va tarjimashunoslikdagi talqini”, “Xitoy tilidagi frazeologizmlarning tasnifiy xususiyatlari”, “Mo Yanning “Musallas mamlakati” asarining tarjimalari” masalalari o'rganilgan.

Bobning birinchi bo'limida frazeologiya va bu sohaning birligi hisoblangan frazeologik birlikning lisoniy mohiyati, bu tur birlik haqidagi leksikografik izohlar tahlil qilingan, turli tilshunosliklarda frazeologik birlikning tabiatiga lingvistik yondashuvlar o'rganilgan. Xususan, Yevropa tilshunosligida frazeologizmlar o'tgan asrning 50-yillarida keng va qamrovli o'rganilganligi, “frazeologizm” tushunchasini ham fanga Sh.Balli olib kirganligi va u frazeologizmlarda tashqi belgiga nisbatan ichki belgi, ya'ni ma'no tomoni ahamiyatli va qimmatli ekanini ta'kidlaganligi<sup>11</sup>, ingliz tilshunosi J.Rippert esa frazeologizmlarni “grammatik xususiyatlar va ketma-ketlikka ega birliklar”<sup>12</sup> sifatida ma'no hamda sintaktik o'ziga xosligini o'rganganligi, ularda so'z tartibi va grammatik tuzilma o'zgarishligi haqidagi tahlillari berilgan.

Rus tilshunosligida ham frazeologizmlar atroflicha o'rganilgan. Xususan, A.Kunin paremalashgan bu birliklarning semantik munosabatlaridan kelib chiqib, uch turini farqlaydi va har bir tur frazeologik birlik komponentlarining xususiyatini belgilaydi: 1) yaxlit ma'noli barqaror leksik birliklar; 2) frazeologik birlik; 3) majoziy ma'noda ishlatiladigan birliklar<sup>13</sup>.

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlar XX asrning 40-yillarda aforizmlar, frazeologizmlarni to'plash, nashr etish rivojlanadi. O'sha yillari A.G'ulomov, U.Tursunov, B.O'rinboev, J.Muxtorov<sup>14</sup> kabilar turg'un birikmalarga ham to'xtalganlar. 50-yillarda Sh.Rahmatullayev, A.Shomaqsudov, M.Husainov, Y.Pinxasov<sup>15</sup> lar frazeologiya bo'yicha tadqiqot olib bordilar. Ular frazeologizm tadqiqida Sh.Rahmatullayev qarashlarini asos qildilar. X.Hamidovning fikricha, frazeologizmlar adabiy til me'yorlariga mos keluvchi yaxlit birliklar bo'lib, ular turg'un iboralar sifatida shakllanadi va ularning kelib chiqish tarixi bor. Fanda

<sup>11</sup> Балли Ш. Французская стилистика. – М.: Наука, 1977. – С. 98.

<sup>12</sup> Rippert J.F. Papers in Linguistics. – London: Oxford University Press, 1957. – P. 233.

<sup>13</sup> Кунин А.В. Основные понятия английской фразеологии как лингвистической дисциплины и проблемы создания англо-русского словаря: Дисс. ... д-ра. филол. наук. – М., 1964. – С. 339-364.

<sup>14</sup> Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – Б. 7-8; Турсунов У.Т. Состояние и задачи изучения фразеологии узбекского языка // Вопросы фразеологии. Труды СамГУ. вып. 106. – Самарканд, 1961. – С. 8-9.

<sup>15</sup> Рахматуллаев Ш.У. Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц современного узбекского языка. АКД. – М. 1952; Пинхасов Я.Д. Фразеологические выражения в языке произведений Хаида Алимджана. АКД. – Ташкент, 1953; Шамаксудов А.Ш. Язык сатиры Муками (лексика и фразеология). АКД. – Ташкент, 1956. – 18 с.; Хусаинов М. Фразеология прозы писательницы Айдын. АКД. – Самарканд, 1959.

ko‘pincha ularning qamrovi toraytirilib, faqat idiomatik birliklar frazeologizmlar sifatida ko‘rib chiqiladi.

Xitoy tilshunoslarining fikricha, yaxshi tarjimalar Xitoy madaniyatini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi<sup>16</sup>. Haqiqatan, madaniy xususiyatlarni ham o‘z ichiga olgan xitoycha frazeologizmlarni tarjimada adekvat tarzda berish xitoycha dunyoqarashni anglashga xizmat qiladi. Shu sababli frazeologizmlar tahlili nafaqat lingvistik, balki madaniy nuqtayi nazardan ham muhimdir.

T.Akimovning “Xitoy tilidagi somatik frazeologizmlar”<sup>17</sup> monografiyasida somatik frazeologizmlarning struktur-semantik xususiyatlari atroflicha o‘rganilgan. Bu o‘rinda T.Akimov, J.Kiraubayevlar tomonidan tuzilgan “汉乌俄成语词典” (Xitoycha-o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘at)<sup>18</sup> O‘zbekistonda xitoy tili frazeologik birliklarini tadqiq qilishdagi ilk qadam bo‘lganligini ta‘kidlash lozim. Xitoy-bayxua tilining leksik-semantik va grammatik xususiyatlarini o‘rgangan F.Xasanova frazeologizmlarni xitoy tilidagi badiiy asar tili xalq tili asosida vujudga kelib, uning bitmas-tuganmas imkoniyatlarini namoyon qiluvchi, asar tilining ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi vositalaridan biri hisoblaydi<sup>19</sup>.

Frazeologik birlik sintaktik va funksional jihatiga ko‘ra jahon tilshunosigi va tarjimashunosligi (ingliz tilidagi tadqiqotlar)da *idioma* termini ostida o‘rganilgan. P.Nyumark: “Idiomalarni tarjima qilishda ularning ayrim ma’no nozikliklariga zarar yetkazilishi mumkin, bunga frazeologizmlar lug‘atlaridan foydalanish ham sabab bo‘ladi. Chunki ular ko‘pincha “zamonaviy bo‘lgan (masalan, *keep my head above water* – mavjud bo‘lish uchun kurash, *zo‘rg‘a kun*) va eskirgan (masalan, *dead as a door nail* – jonsiz, *hayot belgilarisiz*)” ifodalari o‘rtasida farq qilmaydi, ma’no va chastota ekvivalentligini moslashtirish ham qiyin”<sup>20</sup>, deydi. G.Paul ba‘zan aslyat tilidagi idiomaning ma’nosini tarjimada biroz kengroq tushuntirish berish kerakligini ta‘kidlaydi hamda tarjimada juda ko‘p “noma’lum” madaniy ishoralarni qoldirish badiiy matnning ta‘sirini kamaytirishi, bu o‘quvchilarni zeriktirishi mumkinligini aytadi<sup>21</sup>.

Eronlik tarjimashunos A.Shojaei diniy e‘tiqod, geografik joylashuv, mafkuralar harxilligi, ijtimoiy tabaqalanishdagi tafovutlar sababli boshqa til idiomalari ma’nosini anglash tarjima qilish jarayonini qiyinlashtirishini ta‘kidlaydilar bundagi ikki asosiy muammoni ko‘rsatadilar: 1) ma’lum bir tilning idiomalari va turg‘un birikmalari ma’nosini qanday anglash kerak? 2) bir tilga xos idioma va turg‘un birikma to‘plamini boshqa tilda qanday berish kerak, toki ular asl matnning g‘oyalarini to‘liq aks ettira olsin?<sup>22</sup> Shuningdek, tarjimon frazeologizmlarni tarjima qilishda duch keladigan qiyinchiliklarni ham qayd etadi:

<sup>16</sup> Qarang: Насирова С.А. Лексико-семантический анализ общественно-политических терминов Древнего Китайского языка: система кадровых ресурсов // Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 2023. – С. 21.

<sup>17</sup> АКИМОВ Т. Хитой тилидаги соматик фразеологизмлар. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2023.

<sup>18</sup> Akimov T., Kiraubayev J.A. Xitoycha-o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘at. – Toshkent, 2002.

<sup>19</sup> Хасанова Ф. Хитой-байхуа тилининг лексик-семантик ва грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2023. – С.120

<sup>20</sup> Newmark P. A textbook on translation New York, London: Prentice Hall, 1988. – P. 67.

<sup>21</sup> Paul G. Translation in practice: A symposium. – Dalkey Archive Press, 2009. – P. 45.

<sup>22</sup> Shojaei A. Translation of idioms and fixed expressions: Strategies and difficulties // Theory and Practice in Language Studies. – 2012. – T. 2. – №. 6. – P. 1220.

a) frazeologizmning tarjima tilida ekvivalenti bo‘lmasligi; b) frazeologizmning tarjima tilida o‘xshash muqobili bo‘lsa-da, ma’nosiga ko‘ra farq qilishi; c) frazeologizm bir vaqtning o‘zida ham lug‘aviy, ham idiomatik ma’noda ishlatilishi; d) frazeologizmi qo‘llash mumkin bo‘lgan kontekstlarning farq qilishi<sup>23</sup>.

Rus tarjimashunosligida ham frazeologizmlar tadqiqot obyekti bo‘lgan. Frazeologik birliklarning “muqobilsiz tarjimalar” barcha mutaxassislar tomonidan ularning muhim xususiyatlaridan biri sifatida tan olingan. Shu sababli frazeologik birliklarni tarjimada berish masalasi tarjima nazariyasidagi muhim muammo hisoblanadi<sup>24</sup>. Tarjimashunos A.Bondar ham frazeologizmlarni tarjima qilish eng qiyin bo‘lgan leksik kategoriyalardan biri hisoblaydi hamda buning bir qator sabablarini ko‘rsatadi<sup>25</sup>. Bunday sabablardan biri so‘zlarning frazeologizmning tarkibida kelganda o‘zining erkin ma’nosini yo‘qotib, yangi, bog‘liq ma’no kasb etishi va shu sababli, frazeologizmlarni tarjima qilishda har bir tarkibiy qismga lug‘aviy muvofiqlikni topishning o‘zi yetarli emasligini ta’kidlaydi.

G‘.Salomov esa boshqa tillardagi ko‘plab maqol, matal va idiomalarda aks etgan hikmatni ularning ona tilimizdagi muqobillari bilan almashtirish vositasidagina ro‘yobga chiqarish mumkinligini e’tirof etadi<sup>26</sup>. Tarjima asardagi maqol yoki matal yaxlit frazeologik formada bo‘lishi shart<sup>27</sup> ekanligini J.Sharipov ta’kidlaydi. O‘zbek tarjimashunosi Q.Musayev badiiy asarning shakli boshqa jihatlari bilan birga, uning tilini, xususan, lug‘at tarkibini ham o‘z ichiga olishini, asarning milliy xususiyati, asosan, leksik va frazeologik birliklar yordamida yaratilishi<sup>28</sup>ni e’tirof etadi. Ko‘plab frazeologik birliklarning semantik yuki har doim bir tildan boshqasiga o‘zgarmay o‘tmaydi. Shu sababli tarjimada ekvivalentlik tamoyili amal qilish kerak. Ya’ni tarjimon so‘zma-so‘z tarjima usulini qo‘llash o‘rniga, imkon qadar o‘sha maqol yoki iboraning boshqa tilda mavjud bo‘lgan muqobil variantidan foydalanishi kerak. Masalan, ingliz tilidagi “*When in Rome, do as the Romans do*” maqolini o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z “*Rimda bo‘lsang, rimliklar kabi ish tut*” deb tarjima qilish o‘rniga “*Elga qarab elak tut*” muqobil varianti foydalanish maqsadga muvofiq.

Bobning ikkinchi bo‘limida xitoy tili frazeologizmlarining tasnifiy xususiyatlari tahlilga tortilgan. Ma’lumki, xitoy tili frazeologik birliklarga boy. Qadim zamonlarda paydo bo‘lgan frazeologizmlar fondi zamonaviy til shakllari bilan doimiy to‘ldirib boriladi. Bunga ma’lum ma’noda iboralarni nutqda to‘g‘ri ishlata bilish, shunday bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lish Xitoyda har doim qadrlanib kelgani sabab bo‘lgani aytiladi<sup>29</sup>.

<sup>23</sup> O‘sha manba, 1228-bet.

<sup>24</sup> Максимова К.А., Бакулина Н.А., Минеева О.А. Способы перевода английских фразеологических единиц на русский язык // Международный студенческий научный вестник. – 2018. – № 6.

<sup>25</sup> Бондарь А.В. Особенности перевода фразеологических единиц с английского языка на русский // Филологические исследования, 2020.

<sup>26</sup> Саломов Г. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан. 1976. – Б. 244.

<sup>27</sup> Шарипов Ж. Бадий таржима дўстлик қуроли. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б. 24.

<sup>28</sup> Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: 2005. – Б. 92.

<sup>29</sup> Войцехович И.В. Практическая фразеология современного китайского языка. М.: АСТ, Восток–Запад, 2007. – 509 с; Кленин И.Д., Щичко В.Ф. Лексикология китайского языка. М.: Восточная книга, 2013. – 272 с.; Хао Хуэйминь Национально–культурная специфика и источники фразеологизмов китайского языка // Вестник башкирского университета, 2008. Т. 13. № 4. – С. 1009-1011.

Xitoy tilshunosi Fang Shensyue o‘z ishida “成语 *chéngyǔ* va uning ishlatilishi” haqida bo‘lib, unda frazeologik birliklarning leksik ma’nolari, ishlatilish o‘rni, holati va boshqa jihatlariga ko‘ra 22 turi tushuntirilgan. Mazkur ish qator kamchiliklariga qaramay, xitoy tilida frazeologik birliklar (成语 *chéngyǔ*)ni lingvistik tahlil qilishga qaratilgan ilk nazariy ish deb baholanadi. Xitoy frazeologiyasining nazariy asoslarini rivojlantirishga urinishlar XX asrning 50-yillaridan keyin boshlandi. Ayni paytda, frazeologik birliklarni farqlash tamoyillarini shakllantirish<sup>30</sup>, ularning asosiy mezonlarini aniqlashga qaratilgan birinchi urinishlar paydo bo‘ldi<sup>31</sup>. Natijada 熟语 *shúyǔ* termini paydo bo‘ldi (so‘zma-so‘z tarjimasi “tanish, tayyor, tilda qotgan iboralar”). Yangi terminning paydo bo‘lishi uning tushuncha doirasi haqida yangi talqinni yuzaga keltirdi.

Xitoy frazeologiyasida turli yondashuvlarning mavjudligi 熟语 *shúyǔ* tushunchasi borasida xitoy tilshunoslari orasida hali murosaga kelinmaganligi, chuqur tadqiqotlarni talab qiladigan soha ekanligidan dalolat beradi.

Xitoyshunos U.Mavlyanova 熟语 *shúyǔ* terminining uch ma’noga egaligini ko‘rsatadi: 1) nutqning turg‘un bo‘laklarini o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lim; 2) tilning frazeologik birliklari tarkibi; 3) frazeologik birliklar (keng ko‘lamli ma’no)<sup>32</sup>.

Xitoy tili frazeologik birliklarining iyerogliflar soniga ko‘ra tasniflanishi borasida so‘z ketganida bunday birliklarning 2 tadan 14 ta iyeroglifgacha tashkil topishini aytish mumkin. T.Akimov Xitoyda nashr etilayotgan frazeologizmlar lug‘atlarida ikkita iyeroglifli frazeologizmlarning deyarli uchramasligini ko‘rsatib, agar ikki iyeroglifli frazeologizmlar ko‘chma ma’noni ifodalasa, ularni ham frazeologizmlar deb hisoblash kerak<sup>33</sup>ligini ta’kidlaydi.

XX asrning 50–60-yillarida xitoylik tadqiqotchilarning frazeologiya bo‘yicha ishlarida 成语 *chéngyǔ* termini paydo bo‘lgan va ular mualliflarning masalaga yondashuvidan kelib chiqib, turli ma’nolarni anglatgan.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, xitoy tili frazeologiyasining hozirgi o‘rganilish holati natijasida 熟语 *shúyǔ* termini asta-sekin turlicha mohiyat va ko‘rinishli frazeologizmning umumiy nomi deb qabul qilindi. Shuningdek, “chengyu” termini asosan frazeologizm mohiyatini umumiy tavsiflovchi, frazeologizmlar guruhining umumlashtiruvchi nomi sifatida qo‘llanmoqda.

Bobning 3-bo‘limi “**Mo Yanning “Musallas mamlakati” asarining tarjimalari**”dan bahs yuritadi. “Musallas mamlakati” asari esa xitoy tilida 1992-yilda nashr qilingan, 1993-yilda bu romanni nashr qilish taqiqlangan. 2000-yil ingliz tiliga Hovard Goldblatt, 2012-yil rus tiliga I.Yegorov, ukrain tiliga M.Sevchenko tomonidan o‘girilgan. Shuningdek, nemis, norveg tillaridan tashqari yana o‘ndan ortiq tilga tarjima qilingan. 2018-yilda Amir Fayzulla va Sevara Alijonova tarjimasida o‘zbek tilida e’lon qilingan.

<sup>30</sup> 马国凡。 谚语的特点。 , 中国语文; 1960. №11; 周祖谟 谈 “成语”。 《语文学习》. 1955. №1; 欣向 《成语的特性》, 《中国语文》. 1958. №10.

<sup>31</sup> 徐耀民 《成语的划界、 定型和释义问题》 // 《中国语文》 1997. №1; 李行健 《成语规范问题》 // 《辞书研究》 2001, № 2.

<sup>32</sup> Мавлянова У. Хитой тилида сонларнинг семантикаси: лингвомаданий таҳлил. Монография. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2023, – С. 89.

<sup>33</sup> Акимов Т. Хитой тилидаги соматик фразеологизмлар. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2023. – 25 б.

“Musallas mamlakati” romanida uydirma va reallik o‘zaro bog‘langan, hamma narsa qo‘pollik, ikkiyuzlamachilik, vahshiylik, nafs, qashshoqlik, ruhiy cheklanish bilan birga kelib, bema’nilik darajasiga yetadi. I.Yegorov “Musallas mamlakati” asarini xitoy tilidan rus tiliga tarjima qilar ekan, quyidagi fikrlarni bildiradi: “Butun matn “notiqlik asosi”dir: muallif hamma joyda metafora, metonimiya, kinoya va boshqa badiiy vositalardan foydalanadi, matnni hazil va satira bilan to‘ldiradi”<sup>34</sup>.

“Musallas mamlakat” asari ingliz tiliga 2000-yilda X.Goldblatt tomonidan tarjima qilingan. U asarni ifoda tabiiy, to‘siqsiz va ixcham bo‘lishi uchun qayta yozadi, tarjimadan ko‘ra o‘zi yozgan asarga o‘xshab qolgan<sup>35</sup>. Ushbu asarni X.Goldblatt to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilmaydi, balki kontekstdagi ichimlikni chaqiruvchi so‘zlarga aylantirgan<sup>36</sup>. Bunday tarjima usuli muayyan hollarda o‘rinli bo‘lishi mumkin, xususan, asarni yanada tushunarliroq qilish maqsadida shunday yo‘l tutish o‘zini oqlaydi. Biroq badiiy asardagi frazeologik va ramziy ma’nolar asliyatda kengroq ma’naviy yoki ijtimoiy ma’nolarni ifodalaydi. Shuning uchun asliyatdagi mazmun saqlab qolinishi muhim. Mo Yanning romanida joy nomlari, xitoy tibbiyotiga oid ko‘plab terminlar mavjud. X.Goldblatt tarjima jarayonida o‘quvchilar tushunishini osonlashtirish uchun xitoy tibbiyot terminologiyasini qariyb qayta yaratgan va buni o‘quvchilar yaxshi qabul qilgan<sup>37</sup>.

Dissertatsiyaning II bobi **“Musallas mamlakati” asaridagi fe’l frazeologizmlarining leksik-semantik xususiyatlari va ularning tarjimada aks etishi**” deb nomlangan.

Birinchi bo‘limda “Musallas mamlakati” romanidagi fe’l frazeologizmlarning mavzuiy guruhlari, fe’l frazeologizmlarning polisemantik, variantlilik, sinonimik va antonimik xususiyatlari aniqlangan. Tadqiqotda “Musallas mamlakati”dagi fe’l frazeologizmlarning 5 turi asoslangan:

1. Vaziyatni izohlash maqsadida hosil bo‘lgan frazeologik birliklar: 深入浅出 *shēnrù qiǎnchū* – chuqurga tushib, kam suv bilan chiqish bo‘lib, o‘zbek tilida tegirmonga tushib tirik (butun) chiqish demakdir.

2. Frazeologizmlarni kelib chiqishi bo‘yicha tasniflash. Ma’lumki, biror tilga oid frazeologizmlar shu til egalarining ko‘rgan-kechirganlari va hayot tajribalarini umumlashtirib, ixchamlashtirib ifodalash mahsuli hisoblanadi. Dastlab erkin birikma holida qo‘llanib, frazeologizmlarga aylangan. Xitoy tilida ham bunday iboralar juda ko‘p, deyarli har bir frazeologizmning “hayotiy” hikoyasi mavjud. Masalan, 刻舟求劍 *kèzhōu qiújiàn* (Daryoda suzib yurgan qayiq tirqishidan tushib ketgan qilichni daryodan qidirish, ya’ni vaziyat o‘zgarishiga qarshi bo‘lish).

3. Muomala-munosabatlar asosiga qurilgan frazeologizmlar. Xitoy tili frazeologizmlarining salmoqli qismi muomala-munosabatlar asosiga qurilgan lisoniy birliklar hisoblanadi. Masalan: 乐善好施 (*lè shàn hào shī*) – “qo‘l cho‘zmoq” (ya’ni

<sup>34</sup> Мо Янь. Страна вина / пер. Егоров И. – М.: ООО «Издательство «Эксмо», 2022. – С. 4.

<sup>35</sup> Hui Guo. A Comparative Study of Goldblatt's English Translation of Mo Yan's "The Republic of Wine" // Theory and Practice in Language Studies, Vol. 11, № 6, June 2021. – P. 728-733

<sup>36</sup> Jeffrey C. Kinkley. Mo Yan. The Republic of Wine. How-ard Goldblatt, tr. New York. Arcade // World Literature Today, 2000. Vol. 74, № 3. – P. 581-582.

<sup>37</sup> Hui G. A Comparative Study of Goldblatt's English Translation of Mo Yan's "The Republic of Wine" // Theory and Practice in Language Studies, 2021. Vol. 11, № 6. – P. 728-733.

yordam ko‘rsatmoq); 解衣推食 (jiě yī tuī shí) – “mehribonchilik qilmoq” (ya’ni boshqalarga yordam berishda saxiy bo‘lish).

4. Insonning hayot tarzi bilan bog‘liq frazeologizmlar. Har qanday milliy tilning frazeologik birliklari o‘zida xalqning tarixiy, madaniy bilimlarini jamlaydi. Frazeologizmning ma’no qamrovida denotativ va konnotativ komponentlar yaxlitlashib ketadi va shu yaxlit holatida moddiy shakliga jo bo‘ladi<sup>38</sup>.

狗洗不白, 秉性难移 *hēi gǒu xǐ bù bái, bǐngxìng nán yí* – Qora kuchukni yuvib oqartira olmaysan, ya’ni qancha urinmagin, yomon narsa yaxshi bo‘lib qolmaydi. Tabiatan berilgan xususiyat yoki xarakterini o‘zgartirib bo‘lmaydi.

5. Mehnat-faoliyat bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan frazeologizmlar. Frazeologik birliklar, asosan, inson xarakterining muayyan shaxsga, narsaga yoki faoliyat va mehnatga nisbatan namoyon bo‘lishi natijasida shakllanadi. Bunday frazeologizmlarning aksariyati antonim munosabatdagi lisoniy birliklardan tashkil topgan: mehnatkash bo‘lmoq 德言容功 *dé yán róng gōng* va 张口结舌 dangasa bo‘lmoq, 咬牙切齿 *yǎo yá qiè chǐ* – qat’iyatli va 举棋不定 *jǔ qí bù dìng* – qat’iyatsiz bo‘lmoq kabilar.

Ikkinchi bob 2-bo‘lim “Roman tarjimasida variant va polisemantik fe‘l frazeologizmlarning tarjimada berilishi” masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, “Musallas mamlakati” romanida bir qator variant va polisemantik fe‘l frazeologizmlarning mavjudligi kuzatildi.

Frazeologik variantlanish bu tur birliklarda ko‘p uchraydi, shu bois uning leksik, grammatik va morfologik jihatlarini o‘rganish ko‘plab olimlar diqqat markazida bo‘lgan.

A.Karimovning ta’kidlashicha, morfemalari teskari tartibda joylashgan so‘zlarni aniqlashda “morfema”, “teskari (invertlangan)” va “so‘z” tushunchalariga e’tibor qaratish lozim. Shu bilan birga, ikki so‘zning morfemaviy tuzilishi o‘zaro bir xil bo‘lishi kerakligini unutmaslik kerak, shuningdek, morfemalarning ma’nosi va so‘z turkumiga oid xususiyatlari ham mos kelishi zarur<sup>39</sup>.

Fe‘l frazeologizmlardagi morfologik variantlanishda so‘z boshidagi ikki bo‘g‘inning oxiriga o‘tishi kuzatildi: 深入人心、*shēnrùrénxīn* va 人心深入 *rénxīn shēnrù* – qalbidan chuqur joy olmoq. Birinchi va ikkinchi ierogliflarning o‘rin almashinishi natijasida hosil bo‘lgan frazeologik birliklar: 心腹之患 *xīnfù zhīhuàn* va 腹心之患 *fùxīn zhī huàn* – dushmanlik qilmoq; uchinchi va to‘rtinchi bo‘g‘inlarning joy almashishi natijasida hosil bo‘lgan frazeologik birliklar: 举足轻重<sup>40</sup> *jǔzúqīng zhòng* (so‘zma-so‘z. oyog‘ini ko‘tarib og‘ir yoki yengilligini bilmoq) va 举足重轻 *jǔzúzhòngqīng* – muhim vazifani bajarmoq; 得心应手 *dé xīn yìngshǒu* va 得手应心 *déshǒu yìng xīn* – yurak amrini bajarmoq.

Xitoy tili frazeologizmlarida polisemiya o‘ziga xos namoyon bo‘ladi: 舱里灯火通明, 一大群古装女子, 在甲板上轻歌曼舞, 鼓瑟吹笙。 (MY, 275) *Cāng lǐ*

<sup>38</sup> Баранов А.Н., Добровольский Д.О. Аспекты теории фразеологии. – М.: Знак, 2008. – С. 263.

<sup>39</sup> Каримов А. Слова с инвертируемой морфемой в лексической системе китайского языка. // International scientific and practical conference Uzbekistan-China: development of historical cultural, scientific and economic relations. 4(23), Nov., 2024. – С. 210.

<sup>40</sup> 汉俄词典商务印书馆。–北京：1983年，–页. 486.

*dēnghuǒ tōngmíng, yī dàqún gǔzhuāng nǚzǐ, zài jiǎbǎn shàng qīnggēmànwǔ, gǔ sè chuī shēn* – Kema chiroqlarda yalt-yult qilardi, palubada qadimgi bichimdagi liboslarda qizlar pip va shen tovushlari ostida **qo‘shiq aytar va raqsga tushardilar.** (AF, 366)

轻歌曼舞 *qīnggēmànwǔ* ushbu fe‘l frazeologik birlik chiroyli raqs deb talaffuz qilinadi. Bu yumshoq raqs bilan birgalikda yengil musiqani anglatadi. Tarjimalari esa ko‘p ma‘noli bo‘lib, lug‘atda uchta ma‘nosi keltirilgan: 1) qo‘shiq aytish va raqsga tushish; 2) sakrash, chayqalish; 3) vaqtni maroqli o‘tkazish, xursandchilik qilish; shu uch ma‘no polisemiyanı yuzaga keltiradi, yuqoridagi tarjimada birinchi ma‘nosidan foydalanilgan.

Yana misol uchun, 没有任何的荒谬, 何必少见多怪! (MY, 82) *Méiyǒu rènghé de huāngmiù, hébì shǎojiànduōguài!*

...hech qanday bemanilik yo‘q, bor-yo‘q qusur shundaki, maqolda aytilganidek, **kam ko‘rgan ko‘p hayratlanadi.** (AF, 107)

Xitoy tilida 少见多怪 *shǎojiànduōguài* fe‘l frazeologizmi noyob narsa va hodisalarga nisbatan ishlatiladi. Ushbu ibora ilk bor Mou Rongning “Lihuo lun” (牟融, “理惑论”) asarida qo‘llangan. Kishi g‘ayrioddiy hodisalarga duch kelganda kam tajriba egasi bo‘lgani sababli, o‘zida avval his qilmagan tuyg‘uni tuyishini ifodalaydi. Mazkur fe‘l frazeologizmi polisemantik ma‘nolarga ega bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: 1) oz ko‘rgan ko‘p hayratlanadi; 2) tajribasi yo‘q bo‘lmoq, 3) hayron bo‘lmoq. Tarjima jarayonida birinchi ma‘nosidan o‘rinli foydalanilgan.

Ikkinchi bobning 3-bo‘limida **“Musallas mamlakati” asardagi fe‘l frazeologiyasida sinonimiya va antonimiya hodisalarining tarjimadagi ifodasi**” tadqiq qilingan.

Tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra, fe‘l frazeologik sinonimlar o‘zaro umumiy ma‘noda yaqinlikka ega bo‘lsa-da, ularning ishlatilish o‘rni va aniq ma‘no jihatidan sezilarli farqlari mavjud. Bu frazeologik birliklar, odatda, turli nutq vaziyatlarida, uslubiy kontekstlarda va kommunikativ maqsadlarda qo‘llanadi. Masalan, ba‘zi frazeologik sinonimlar rasmiy yozishmalarda yoki ilmiy matnlarda qo‘llash uchun mos bo‘lsa, boshqalari og‘zaki nutq yoki badiiy asarlarda jonli va obrazli ifodalar yaratish uchun ishlatiladi.

Xitoy tilida ham frazeologik sinonimlar boshqa tillardagi kabi “sinonimik qator” (同义词群 *tóngyìcí qún*) shaklida mavjud bo‘ladi, bunday qator frazeologizmik bir umumiy ma‘no asosida birlashadi, biroq ularning ishlatilish o‘rni va ma‘noni ta‘sirchanligi jihatidan farqlanadi.

Xitoy tili sinonimlari zaxirasida sinonimik qatori o‘nga yaqin frazeologizmni ichiga oladiganlari ham mavjud. frazeologik sinonimlar tildagi boylik va xilma-xillikni namoyish qilibgina qolmay, balki muallifga yoki nutq so‘zlovchiga fikrini nozikroq, aniqroq va estetik jihatdan yuksak saviyada ifodalash imkonini beradi. Masalan, xitoy tilidagi 伸出援手 *shēn chū yuán shǒu* – yordam qo‘lini cho‘zmoq va 雪中送炭 *xuě zhōng sòng tàn* – qorga ko‘mir eltmoq frazeologik birliklari ham “yordam berish” ma‘nosini anglatadi, ammo ular yordamning “muhtojlik holatidagi o‘rni va ahamiyati”ni obrazli namoyon etadi.

Quyida “Musallas mamlakati” romanidagi o‘zaro sinonimik xususiyatga ega fe’l frazeologizmlarni misol tariqasida keltirsak:

太天马行空了，太漫无节制了。(MY 152) *Tài tiānmǎ xíngkōng le, tài màn wú jiézhìle.*

**Hayot parvozi** shunchalikki, hech birini tutib bo‘lmaydi.(AF, 196)

Yuqoridagi jumlada 天马行空 *tiānmǎ xíngkōng* fe’l frazeologizmi ijodning erkinligini ifodalash uchun qo‘llanilgan.

...在磁性黑板上写上了五个龙飞凤舞的大字...(MY, 188) ...*zài cíxìng hēibǎn shàng xiě shàngle wǔ gè lóngfēi fèngwǔ de dàzì...*

Elektron doskani qo‘liga olib, u **katta-katta qilib** ohangrabo taxtasiga 5 ta iyeroglifni yozadi...(AF, 245)

Bu jumlada esa 龙飞凤舞 *lóngfēi fèngwǔ* fe’l frazeologizmi yozuvning erkin va go‘zalligini aks ettirish uchun foydalanilgan.

天马行空 *tiānmǎ xíngkōng* va 龙飞凤舞 *lóngfēi fèngwǔ* fe’l frazeologizmlari har ikkisi ham obrazli ifoda vositasi va ijodiy harakatning erkinligini ifodalovchi bir-biriga yaqin frazeologizmlar hisoblanadi. Biroq, ular turli semantik markazga ega bo‘lib, sinonim sifatida ishlatilishi faqat ayrim kontekstlarda maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu ikki chengyu o‘rtasida mazmuniy yaqinlik mavjud bo‘lsa-da, ularni bevosita ekvivalent sifatida almashtirish har doim ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ularning sinonimligi kontekst va ifoda uslubiga qarab aniqlanadi.

Mo Yanning “Musallas mamlakati” romanida ham yozuvchi antonimik frazeologizmlarning yuqoridagi kabi xususiyatlaridan unumli foydalangan. Masalan, asarda uchragan 势如破竹 *shìrú pòzhú* fe’l frazeologizmi o‘zbek tiliga “biron-bir ishni oson amalga oshirmoq”, “anov-manov ish unga cho‘t emas” deb tarjima qilinadi va bu frazeologizmga 游移不定 *yóuyí bùdìng* – “biron-bir ishni qilishda ikkilanmoq” iborasi antonim bo‘ladi. Mazkur istifoda jarayonlarining o‘zbekcha tarjima misolida tushuntirish muhim hisoblanadi. ...为了复仇练技，岂能不事半功倍，势如破竹 (MY, 137)。... *wèile fùchóu liànjì, qǐ néng bù shìbàngōngbèi, shìrú pòzhú.*

...qariyb kuch sarflayapti, shu boisdan u bu ishni qiynalmasdan bajaryapti, **anov-manov ish unga cho‘t emas.** (AF, 178)

老人默默地站着，脸上那两点绿光游移不定，好像两只精疲力竭的萤火虫 (MY 109)。 *Lǎorén mò mò de zhàn zhe, liǎn shàng nà liǎng diǎn lǜ guāng yóuyí bùdìng, hǎoxiàng liǎng zhī jīngpílìjié de yínghuǒchóng.*

*Chol uning ro‘parasida churq etmay turar, holdan toygan tillaqo‘ng‘izlarga o‘xshab, ko‘zlari alang-jalang qilardi* (AF, 178). Asar tarjimasida 游移不定 *yóuyí bùdìng* fe’l frazeologizmining o‘zbekchada tarjimasida tushib qoldirilgani kuzatilib, quyidagi tarjima variantini berish mumkin:

*Chol indamay turardi, nima qilishini bilmay (ikkilanib), xuddi tillaqo‘ng‘iz kabi ko‘zlari miltillardi.* (T)

Antonimiya til hodisasi sifatida inson tafakkurining umumiy qonuniyatlari bilan belgilanadi, chunki bu mantiqiy muammodir. Til vositalari yordamida ko‘plab murakkab hodisalarning qarama-qarshi mohiyatini moslashuvchan tushunchalarda aks ettirish mumkin:

O‘zbek va xitoy tillarida antonim fe’l frazeologizmlarning tahlili ushbu tillardagi fe’l frazeologizmlarning antonimlarining ekvivalentini topib tarjima qilishda sezilarli tafovutlar mavjud. Bunday tafovutlar nafaqat tillarning tuzilishi va grammatik xususiyatlarida, shuningdek, har ikki xalqning madaniyati, dunyoqarashi va turmush tarzidagi o‘ziga xosliklarda ham namoyon bo‘ladi.

Dissertatsiyaning III bobi “**“Musallas mamlakati” romanidagi fe’l frazeologizmlar tarjimasida ekvivalentlik va muqobilik masalasi**”ga bag‘ishlangan. Uning 1-bo‘limida ekvivalenti va muqobili mavjud fe’l frazeologizmlarning tarjima qilish usullari o‘rganilgan. “Musallas mamlakati” romanida ekvivalentli va muqobilli fe’l frazeologizmlardan faol foydalanilgan va bu, shubhasiz, ularni o‘zbek tilida ifodalash usullarini ko‘rib chiqishni taqozo qiladi.

Fe’l frazeologizmlar qiyoslanayotgan tilda muqobil variantlariga ega bo‘lmaganda tillararo chog‘ishtirishda ko‘plab madaniy tafovutlar yuzaga chiqadiki, bu, albatta, o‘ziga xos madaniy xususiyatlar bilan bog‘liq. Bunday hollarda tarjimonga nafaqat til bo‘yicha bilimi, shuningdek, har ikki xalqning madaniyati, urf-odatlar va mentaliteti bo‘yicha chuqur bilimga egaligi ham qo‘l keladi.

A.Pimning ta’kidlashicha, “ekvivalentlik tarjimini belgilashi kerak, tarjima esa, o‘z navbatida, ekvivalentlikni belgilaydi”<sup>41</sup>.

M.Beyker tarjima jarayonidagi ekvivalentlikni quyidagicha tushuntiradi: 1. So‘z darajasidagi ekvivalentlik. Bunday ekvivalentlikni aniqlashda tarjimon nafaqat so‘zning lug‘aviy ma’nosiga, balki vaqt, zamon, madaniy kontekst va uslubiy xususiyatlarga ham e’tibor berishi lozim. 2. Grammatik ekvivalentlik tillararo tarjimada turli grammatik kategoriyalar, masalan, son, zamon, aspekt, nisbat, shaxs-son va jins tushunchalari doirasida namoyon bo‘ladi. Shu sababli grammatik ekvivalentlikka erishish tarjimonning nafaqat lingvistik bilimini, balki manba va maqsad tillarning grammatik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish ko‘nikmasini ham talab qiladi. Matn ekvivalentligiga ma’lumot va ketma-ketlik bo‘yicha manba matni va tarjima matni o‘rtasida tenglik kuzatilganda erishiladi. Tarjimon quyidagi uchta: “matn turi”, “tarjima maqsadi” va “kitobxon auditoriyasi” kabi omillaraga tayanib ish yuritish lozim bo‘ladi. 4. Pragmatik ekvivalentlikka erishish orqali tarjimon kitobxon boshqa millat madaniyatining tarjima matnidagi varianti bilan tanishadi<sup>42</sup>.

Mo Yanning “Musallas mamlakati” asaridagi muqobilli fe’l frazeologizmlarning o‘zbekcha tarjimasida quyidagi ikki usuldan samarali foydalanilganligi aniqlandi: 1) ekvivalent tarjima; 2) muqobil tarjima.

**1. Ekvivalent tarjima** asliyat tili va tarjima tilining haqiqiy ma’nosi, sintaktik va leksik tuzilishi va ichki shakli jihatidan deyarli har ikki tilda ham mavjud frazeologik birlik: 算了，不跟你说这些，对你说这些犹如对牛弹琴，你学问太小，理解不了。 *Suànle, bù gēn nǐ shuō zhèxiē, duì nǐ shuō zhèxiē yóurú duì niú tánqín, nǐ xuéwèn tài xiǎo, lǐjiě bùliǎo* (MY,158) – Bunday narsalar haqida sen bilan gaplashish *eshagimning qulog‘iga tanbur chertish<sup>43</sup> bilan barobar.* (AF, 203)

<sup>41</sup> Pym A. Natural and Directional Equivalence in Theories of Translation. – Tarragona, 1992. – P. 37.

<sup>42</sup> Baker M. In Other Words. A course book on translation. Second edition. – London, 2011. – P. 32.

<sup>43</sup> <https://izoh.uz/word/tanbur>

Ushbu frazeologik birlikda 对牛弹琴 *duì niú tánqín* tarkibida bitta fe'1 so'z turkumi qatnashgan bo'lib, so'zma-so'z sigirning qulog'iga tambur chertmoq deb tarjima qilinadi.

**2. Tarjimada muqobil** frazeologik birliklar va ularning haqiqiy ma'nolari deyarli mos keladi, lekin sintaktik tuzilishi, leksik tarkibi va majoziy komponentlari biroz farq qilishi mumkin. Masalan,

人类与酒的关系中，几乎包括了人类生存发展过程中的一切矛盾及其矛盾方面，如有大手笔，真能在这个题目上做出大文章，可惜我才气不足，所以处处窘急、捉襟见肘。(MY, 118) *Rénlèi yǔ jiǔ de guānxì zhōng, jīhū bāokuòle rénlèi shēngcún fāzhǎn guòchéng zhōng de yīqiè máodùn jí qí máodùn fāngmiàn, rú yǒu dàshǒubǐ, zhēn néng zài zhège tímù shàng zuò chū dà wénzhāng, kěxí wǒ cáiqì bùzú, suǒyǐ chùchù jiǒng jí, zhuōjīn jiànzhǒu.*

*Mening qobiliyatim, afsuski, yetarli emas va shu bois nuqul kechinmalar-u tushkunliklardan boshim chiqmaydi: afandining ko'rpasi boshiga yetsa, oyoqqa, oyoqqa yetsa, boshga yetmaydi.* (AF, 150)

捉襟见肘 *zhuōjīnjiànzhǒu*, ushbu fe'1 frazeologizmning kelib chiqishi motivi bor: Juangzi (庄子 *zhuāngzǐ*) dan kelib chiqqan, ya'ni jin (襟 *jīn*) kiyimning ko'krak qismiga nisbatan ishlatiladi. Kiyimni etagini to'g'rilay desa, tirsaklar ochilib qolishi, ya'ni yirtiq kiyimlarni tasvirleydi, bu bir narsaga e'tibor qaratib, ikkinchisini nazardan chetda qoldirishga nisbatan qo'llanadi. Ushbu fe'1 frazeologizmni tarjima qilishda muqobil tarjima usulidan samarali foydalanilgan.

Ekvivalentsiz iboralarga qaraganda ekvivalenti va o'xshashi bo'lgan frazeologizmlarning miqdori salmoqli. Ko'pincha, ekvivalent birlikning topilmasligi o'ziga xos madaniy va tarixiy voqelik, shuningdek, xitoy xalqining maxsus an'analari bilan izohlanadi. Ekvivalentsiz frazeologizmlar nafaqat o'z obrazi, balki ifodalaydigan voqeligi bilan ham tilga uzviy bog'langanki, bunday bog'lanishning uzilishi ularning ma'nosining yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Har bir ekvivalentsiz frazeologik birlik xalqning moddiy va ma'naviy hayotining xususiyatlarini, o'ziga xos tafakkur tarzini, axloqiy qadriyatlarini va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. Shu sababli ekvivalentsiz frazeologik birliklar faqat tegishli madaniy makonlarda ishlatilishi mumkin.

Bobning 2-bo'limida "Muqobilsiz fe'1 frazeologizmlarning tarjimada berish xususiyatlari" o'rganigan. "Muqobilsiz leksika" atamasi ilmiy muomalaga ilk bor U.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarov tomonidan kiritilgan. Ularning fikricha: "Muqobilsiz leksika boshqa madaniyat va tilda mavjud bo'lmagan tushunchalarni ifodalovchi so'zlar, ya'ni faqat muayyan madaniyatgagina xos unsurlar, shuningdek, boshqa tilda tarjimasi yo'q, bir so'z bilan aytganda, o'zi taalluqli tildan tashqarida muqobili topilmaydigan so'zlardir"<sup>44</sup>. L.S.Barxudarovning izohlashicha: "Muqobilsiz leksika – bir tildagi leksik birliklarning boshqa tilda to'liq yoki qisman muqobiliga ega bo'lmashidir"<sup>45</sup>.

Muqobilsiz frazeologizmlar boshqa tilga aynan tarjima qilib bo'lmaydigan, muayyan xalq madaniyatiga xos belgi va tushunchalarni ifodalovchi til birliklaridir.

<sup>44</sup> Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Лингвострановедческая теория слова. – М.: Русский язык, 1980. – С. 320.

<sup>45</sup> Jo'rayeva N. Fransuz va o'zbek tillari evfemizm va disfemizmlarining lingvopragmatik xususiyatlari: Filol. fan. fals. d-ri (PhD). ...diss. avtoref. – Andijon, 2023. – B. 56.

Har qanday til yoki dialektda boshqa tilga to'liq ekvivalent holda tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar, frazeologik birliklar va tushunchalar mavjud. Bunday frazeologizmlar, odatda, xalqning turmush tarzi, urf-odatlar va madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi "mehr-muhabbat", "mehr-oqibat", "mehr-shafqat" kabi birliklarni boshqa tillarda bitta so'z bilan ifodalab bo'lmaydi, chunki bunday so'zlarning ma'no tarkibida o'zbekcha turmush bilan bog'liq ottenkalar mavjud. Xitoy tilida ham muqobilsiz leksika ko'plab uchraydi. Masalan, 一瓶不响, 半平晃荡<sup>46</sup> *Yī píng bù xiǎng, bàn píng huàng dāng*.

*To'la shishadan shovqin chiqmaydi, yarim shishadan shovqin chiqadi.*

Yuqoridagi jumlaning o'zbek tili tabiatiga har jihatdan mos qilib ifodalash uchun *shovqin* so'zini *ovoz* so'zi bilan almashtirish kerak. Shunda jumla adekvat tarjima qilingan bo'ladi.

Biz ko'rib chiqqan manbalarga ko'ra ekvivalenti bo'lmagan mislollarni muqobilsiz fe'l frazeologizmlar qatoriga kiritdik.

Tadqiqot jarayonida Mo Yanning "Musallas mamlakati" romanidagi fe'l frazeologizmlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda quyidagi tarjima usullaridan foydalanilganligi kuzatildi: kalkalash, tasviriy (eksplikatsiya), ma'lumot qo'shish, tushirib qoldirish, transliteratsiya, so'z yoki so'z birikmasi yordamida berish.

Kalkalash usuli yordamida muqobilsiz frazeologik leksik birlikning tarkibiy qismlari tarjima tiliga asl shaklida, ya'ni so'zma-so'z o'giriladi. Bunda har bir komponentning lug'aviy va grammatik ma'nosi iloji boricha saqlanib qoladi. Ushbu usul, ayniqsa, o'xshash semantik maydonga ega bo'lgan yoki umumiy madaniy asosga ega tillar o'rtasida muvaffaqiyatli qo'llaniladi. Biroq, tarjimon mazmuniy aniqlik va tushunarlikni ta'minlash uchun kontekstga alohida e'tibor qaratishi lozim. Masalan, 丁钩儿两手冒汗, 心里在想着庖丁解牛的故事。(MY, 107) *Dīng gōu er liǎngshǒu mào hàn, xīnlǐ zài xiǎngzhe páodīng jiě niú de gùshi*.

*Ding Gournig kafti terladi. Xayolida ho'kizni nimtalagan oshpaz haqidagi matal aylanardi.* (AF, 140)

Tasviriy (eksplikatsiya) usul yordamida bir so'z tarjima tilida so'z, so'z birikmasi, frazeologik ibora yoki hatto butun bir gap orqali ifodalanadi. Bu usul asliyat tilidagi mazmun va hissiyotni imkon qadar aniqroq yetkazish imkonini beradi: 曹孟德算一个, 对酒当歌就是对着美人唱歌, 人生短暂, 美人如朝露。(MY, 81) *Cáomèngdé suàn yīgè, duì jiǔ dāng gē jiùshì duìzhe měirén chànggē, rénnshēng duǎnzàn, měirén rú zhāolù*.

*Yana bir shinavanda sifatida Sao Mendeni tilga olib o'tamiz. Unda "musallasni tarannum etmoq" – "go'zal jononni taran-num etmoq"dir; umr qisqa, go'zal jonon esa "tongi shabnamga o'xshaydi".* (MY, 106)

Xitoy va o'zbek tillaridagi fe'l frazeologizmlarni chog'ishtirish jarayonida ikki til madaniyatining ta'sirlashuvi yuzaga keladi. Shu jarayonda tarjima tilida mavjud bo'lmagan iboralarni tarjima qilishda so'z yoki so'z birikmasi usulidan foydalanish

<sup>46</sup> 王树山. 俗谚. 北京.: 2008, – 页 70.

mumkin. Ushbu usul asliyat tilidagi bo‘yoqdorlikni yo‘qotsa-da, ma‘noni saqlab qolishda yetakchi usullardan hisoblanadi:

她捏起电子笔，在磁性黑板上写上了五个龙飞凤舞的大字。(MY, 188) *Tā niē qǐ diànzǐ bǐ, zài cíxìng hēibǎn shàng xiě shàngle wǔ gè lóngfēi fèngwǔ de dàzì.*

*Elektron doskani qo‘liga olib, u katta-katta qilib ohangrabo taxtasiga 5 ta iyeroglifni yozadi...*(AF, 245)

Ushbu 龙飞凤舞 *lóngfēi fèngwǔ* frazeologik birligi biron-bir harakatni, asosan, yozuvga nisbatan juda chiroyli amalga oshirish nazarda tutiladi. So‘zma-so‘z ajdarhoning uchishi, qaqnusning raqsi deb tarima qilinadi. Tarjimada *katta-katta qilib* deb o‘girilgan, shu bilan birga asliyat mazmuniga ham putur yetmagan.

Ekvivalentsiz frazeologizmlarni tarjima qilishdagi asosiy muammo ularni asl matnda tanib olishdir. Bu, asosan, frazeologik birliklarning alohida shaklining xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu o‘z navbatida ularni oddiy so‘zlardan ajratishni qiyinlashtiradi. Erkin birliklar sifatida iboraning mantiqiy birliklarini olib, matnni buzib, tarjimada xatolik yuzaga keladi. Ekvivalentsiz frazeologizmlarni tarjima qilishning asosiy mezon – qabul qiluvchining lingvistik me‘yorlarni saqlash va ularga rioya qilishdir.

## XULOSA

1. Xitoy tilidagi fe‘l frazeologizmlar bu til frazeologik tizimining salmoqli qismini tashkil etadi. Ularning katta qismi xitoy madaniyatining eng qadimgi davrlari bilan bog‘liq. Mo Yan o‘z asarlarida xitoy tilining qadimgi davr tili frazeologizmlaridan unumli foydalangan. Xususan, “Musallas mamlakati” romanida fe‘l frazeologizmlarning turli mavzuiy guruhga oid namunalarini xitoy madaniyati va tarixiga doir muayyan tushunchalarni ifodalash uchun qo‘llashga muvaffaq bo‘lgan.

2. Xitoy tilining frazeologik zahirasida fe‘lli chengyuy (成语 *chéngyǔ*)lar miqdori talaygina. Fe‘lli chengyuylarda ko‘p holatlarda sinonimik va antonimik munosabatdagi fe‘llar ishtirok etadi. Qadimgi xitoy tiliga mansub leksik birliklar asosida shakllangan fe‘lli chengyular bugungi zamonaviy xitoy tilida faol qo‘llanilib kelayotgan bo‘lsa-da, ular tarkibiy komponentlarining semantik qamrovi ko‘p ma‘nolilik xususiyati bilan ajralib turadi.

3. Tarkibida grammatik jihatdan yetakchi so‘z sifatida fe‘l so‘z turkumiga oid, morfologik xususiyatlar va sintaktik funksiyalariga ko‘ra fe‘lga xos so‘z mavjud bo‘lgan shakllar fe‘l frazeologizmlar hisoblanadi. Lekin xitoy tilidagi fe‘l frazeologizmlar o‘zbek tiliga har doim ham fe‘l so‘z turkumiga oid so‘zga teng bo‘lgan yoki fe‘lli birikma bilan tarjima qilinmaydi. Ular tarjimada ot, sifat, ravish kabi so‘z turkumlariga oid leksik yoki frazeologik birliklar vositasida ham berilishi kuzatildi.

4. Xitoy tilidagi fe‘l frazeologizmlarda asosan struktur-semantik variantlashish yuz beradi. Tildagi variantdosh fe‘l frazeologizmlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tarjimada identik variantni berish usuli qo‘llaniladi. “Musallas mamlakati” romanida adib polisemantik, sinonimik, antonimik fe‘l frazeologizmlardan samarali foydalangan. Ularning semantikasida xitoy madaniyati va urf-odatlarini asosiy motiv vazifasini bajargan. Asarning o‘zbek tiliga tarjimasida polisemantik fe‘l frazeologizmlar ko‘pincha kontekstual tarjima, sinonim va antonim fe‘l

frazeologizmlarni muqobil vositasida berish yoki semantik kalkalash usullaridan samarali foydalanilgan.

5. O‘zbek tilida ekvivalenti mavjud bo‘lgan fe‘l frazeologizmlar son jihatdan muqobili mavjud fe‘l frazeologizmlarga nisbatan ancha kam uchraydi. Ekvivalenti mavjud frazeologizmlar tarjima jarayonida obrazni asl holatida saqlash prinsipi asosida beriladi. Biroq muqobili mavjud frazeologizmlar tarjima qilinayotganda obrazni qisman o‘zgartirish yoki uni butunlay boshqa obraz bilan almashtirish tamoyillariga asoslanadi.

6. “Musallas mamlakati” romanida xitoy xalqining nutqida shakllangan, shaxsning ijobiy va salbiy sifatlarini tavsiflovchi ko‘plab frazeologik birliklar mavjud. Tadqiqot davomida fe‘l frazeologizmlar mavjud vaziyatdan kelib chiqishi, muayyan holatga munosabat ifodalashi, xalqning hayot tarzi va kishilarning mehnat-faoliyatiga ko‘ra tahlil qilindi. Tahlilga tortilgan aksar frazeologizmlarning hayotiy motivlari mavjud va ularning salmoqli qismi xitoy yozma manbalarida saqlanib qolgan. Mazkur motivlar orqali xitoy xalqining olamni idrok qilish tarzi, hayotiy hodisalarga munosabati anglanadi.

7. Xitoy tilidagi fe‘l frazeologizmlarning o‘zbek tilidagi ekvivalent va muqobillarini topish hamda tarjima qilish ancha murakkab jarayon. Buning asosiy sababi – o‘zbek va xitoy xalqlari milliy madaniyatlari orasidagi farqlar, shuningdek, ushbu tillarda so‘zlashuvchilarning dunyoqarashi va mentalitetida bir mavzu yoki hodisaga nisbatan turlicha tushunchalarning mavjudligidir.

8. Ishda “Musallas mamlakati” asaridagi 91 ta fe‘l frazeologizm ishtirok etgan jumlar tahlilga tortildi va ularning o‘zbek tiliga yetti turdagi tarjima usuli yordamida tarjima qilingani dalillandi. Jumladan, ekvivalenti bor fe‘l frazeologizmlar 6 ta, muqobili mavjud fe‘l frazeologizmlar 8 ta, kalkalash usulida tarjima qilingan fe‘l frazeologizmlar 13 ta, tasviriy (eksplikatsiya) usulda o‘girilgan fe‘l frazeologimlar 9 ta, ma’lumot qo‘shish usulida tarjima qilingan fe‘l frazeologizmlar 14 ta, tushirib qoldirilgan fe‘l frazeologizmlar 11 ta, so‘z yoki so‘z birikmasi vositasida berilgan fe‘l frazeologizmlar 17 tani tashkil qildi.

9. Xitoy tilidagi o‘zbek tiliga muqobilsiz fe‘l frazeologizmlarni tarjima qilishda kalkalash, tasviriy (eksplikatsiya), ma’lumot qo‘shish, tushirib qoldirish, so‘z yoki so‘z birikmasi shaklida berish kabi tarjima usullari keng foydalaniladi. Muqobili mavjud fe‘l frazeologizmlarni xitoy tilidan o‘zbekchaga o‘girishda esa ekvivalent hamda muqobil tarjima usullari istifoda qilinadi.

10. Tarjima tilida asliyatdagi fe‘l frazeologizmlarning ma’nosini har doim to‘liq aks ettirib bo‘lmaydi. Buning sababi ushbu birliklarda milliy-madaniy xususiyatlarning mavjudligi, tarixiy tajriba va realiyalarning boshqaligidir. Fe‘l frazeologizmlar tarjimasida semantik moslik va madaniy moslik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash muhim hisoblanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

**ХАСАНОВА ШАХЗОДА АБДУЖАББОР КИЗИ**

**ПЕРЕДАЧА ГЛАГОЛЬНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В УЗБЕКСКОМ  
ПЕРЕВОДЕ РОМАНА МО ЯНЯ “СТРАНА ВИНА”**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание  
и переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Ташкент – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за № B2024.4.PhD/Fil5386.**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете востоковедения.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета [www.tsuos.uz](http://www.tsuos.uz) и Информационно-образовательном портале [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)

**Научный руководитель:** **Исматуллаева Наргиза Расулжановна**  
доктор философии по филологическим наукам, доцент

**Официальные оппоненты:** **Зиямухамедов Жасур Ташпулатович**  
доктор филологических наук, профессор

**Курбанова Гульсара Садыковна**  
доктор филологических наук, доцент

**Ведущая организация:** **Институт Узбекского языка, литературы и фольклора Академии наук Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится «\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 г. в \_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном университете востоковедения. (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Шахрисабзская, 16. Тел.: (99871) 233-45-21, факс: (99871) 233-52-24; e-mail: [info@tsuos.uz](mailto:info@tsuos.uz).)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета востоковедения (зарегистрирована за № \_\_\_\_). (Адрес: 100060, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 20. Тел.: (99871) 233-45-21.)

Автореферат диссертации разослан «\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года.

(Протокол реестра рассылки № \_\_\_\_ от «\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года).

**А.М.Маннонов**

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филол. наук, профессор

**Р.А.Алимухамедов**

В.и.о. Ученого секретаря Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филол. наук, доцент

**Х.З.Алимова**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филол. наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (автореферат диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Проблема фразеологизмов, их национально-культурные особенности и формально-семантическая структура остаются одной из самых актуальных тем исследования в мировой переводоведческой науке. В XX веке в мировой науке была проделана большая работа по изучению фразеологии. В последние годы проблема фразеологизмов стала актуальной областью исследования в таких направлениях, как лингвистика, лингвокультурология, психолингвистика, когнитивная лингвистика, межкультурная коммуникация, создание параллельных корпусов и прикладное переводоведение. В частности, изучение структурно-семантических свойств фразеологизмов приобретает все большее значение в процессе перевода.

В мировой переводоведении фразеологические единицы, в частности глагольные фразеологизмы, неизменно находятся в центре внимания в контексте их значимости для перевода. Глагольные фразеологизмы активно используются при выражении значений, связанных с действиями, состояниями и внутренними переживаниями человека. В связи с этим углубленное изучение глагольных фразеологизмов представляет собой актуальную задачу как для понимания языковой культуры, национального мышления и исторической памяти народа, так и для интеграции фразеологических единиц в образовательный процесс.

В процессе интеграционных преобразований, происходящих в последние годы в нашей стране, исследование национально-культурных особенностей межнационального общения, универсальных характеристик, а также своеобразия лексического и фразеологического состава языков приобретает особую значимость в контексте изучения иностранных языков. Тот факт, что фразеологизмы в китайском и узбекском языках создают ряд различий и сложностей при переводе, изучении иностранных языков и межкультурной коммуникации, ставит такие важные задачи, как сравнение двух языков и изучение уникальных особенностей этих языков.

Постановление Президента Республики Узбекистан от указ от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», а также другие нормативно-правовые акты, 20 апреля 2017 года № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», постановление от 16 апреля 2020 года № ПП-4680 «О мерах по кардинальному совершенствованию системы подготовки кадров и повышению научного потенциала в области востоковедения», постановление от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», связанные с данной деятельностью, определяют задачи, выполнение которых в значительной степени будет способствовать проведению настоящего исследования.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологии республики I. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

**Степень изученности проблемы.** Фразеологизмы уже достаточно давно стали объектом научного исследования. В частности, глагольные фразеологизмы и их лингвистические особенности рассматривались в европейском языкознании такими учеными, как Ж.Ф.Рипперт, Ш.Балли, С.Филлмор, П.Кай, М.О'Коннор, А.Маккай и С.Гледхилл<sup>1</sup>, в области переводоведения данную проблему освещали М.Ларсон, П.Ньюмарк, А.Аделния, Х.Дастжерди и А.Шоджаеи<sup>2</sup>.

В китаеведении также значительное внимание фразеологизмам уделено в исследованиях и словарях<sup>3</sup> таких учёных, как Чжоу Цзумо, Ван Дэчунь, Ма Гофань, Тан Сунбо, Сун Вэйцзян, Лю Шусинь, Суй Силян, Сюй Яоинь, Ли Синцзян и Линь Цзыюй<sup>4</sup>.

В русской и таджикской лингвистике, а также в переводоведении фразеологизмы стали объектом исследования таких учёных, как А.М.Григораш, В.Н.Телия, М.И.Грицко, Я.И.Рецкер, И.Э.Городецкая, П.П.Ветров, Ф.А.Ахмедова<sup>5</sup>. Они подробно изучали глагольные фразеологизмы, их структуру, семантику и стилистические особенности.

В Республике Узбекистан фразеологизмы в целом, а также глагольные фразеологизмы, изучались с лингвистической точки зрения такими лингвистами, как Ш. Рахматуллаев, А. Рафиев, М. Умарходжаев, А. Ганиев, А. Маматов, Б. Йулдашев, Ш. Усмонова, М. Халикова, Ш. Ганиева, Б. Болтаев<sup>6</sup> и другие.

<sup>1</sup> Rippert J.F. Papers in Linguistics. – London; Oxford University Press, 1957. – 233 p.; Балли Ш. Французская стилистика. – М.: Наука, 1977; Fillmore C.J., Kay P., O'connor M.C. Regularity and idiomatity in grammatical constructions// Language, 1988. Vol. 64. – P. 501-538; Makkai A. Idiomaticity as the essence of language. In Actes du XVème congrès international des linguistes: Presses universitaires de l'Université laval, Québec, 1992. – P. 361-365.; Gledhill C. Collocation and genre analysis. The discourse function of collocation in cancer research abstracts and articles. In Zeitschrift für Anglistik und Amerikanistik. Vol. 1/1995. – P. 1-26.

<sup>2</sup> Larson M.L. Meaning Based Translation: A Guide to Cross Language Equivalence. London and New York: University Press of America, 1984; Newmark P. A textbook on translation New York, London: Prentice Hall, 1988; Adelnia A., Dastjerdi H. V. Translation of idioms: A hard task for the translator //Theory and practice in language studies, 2011.Vol.1. – P. 879-881; Shojaei A. Translation of idioms and fixed expressions: Strategies and difficulties //Theory and Practice in Language Studies, 2012. Vol. 2, №. 6. – P. 1220-1229.

<sup>3</sup> 刘松筠, 李行健, 向光忠. 中华成语大辞典. 长春:吉林出版社, 2001年, 1376页。叶芳来:俄汉谚语俗语词典, 北京:商务印书馆, 2005年,604页。王兴国, 于波:汉语成语大词典, 北京:华语教学出版社, 2007年, 1971页。温瑞政:中国惯用语大辞典, 上海辞书出版社, 2011年, 1040页。温瑞政:中国歇后语大辞典, 上海辞书出版社, 2011年, 1395页。

<sup>4</sup> 周祖谟 谈“成语”。《语文学学习》. 1955. №1; 王德春《词、词组、熟语》, 上海外国语学院季刊. 1958, № 3; 马国凡《谚语的特点》。《中国语文》. 1960. №11; 唐松波.《熟语与成语的种属关系》中国语文. 1960; 孙维张《汉语熟语学》. 1989; 刘树新《固定语及其类别》. 1993; Цуй Силян. Китайские шюю и цивилизация. 1997; 徐耀民《成语的划界、定型和释义问题》//《中国语文》1997. №1; 李行健《成语规范问题》//《辞书研究》2001; Линь Цзыюй. Сопоставительный анализ фразеологизмов с компонентом животных в русском и китайском языках: Дисс. канд.филол.наук. –Уфа, 2020.

<sup>5</sup> Григораш А.М. Структурный и семантико-стилистический анализ глагольной фразеологии русского языка (в сопоставлении с украинским): Дисс. канд.филол.наук. – Киев, 1984; Грицко М.И. Глагольные фразеологизмы русского, английского и французского языков в сопоставительном аспекте: Дисс. ...канд. филол. наук. – Новосибирск, 2005; Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – М.: Просвещение, 2006; Ветров П.П. Фразеология современного китайского языка. Синтаксис и стилистика. – М.: Московская книга, 2007; Ахмедова Ф.А. Глагольные фразеологизмы, обозначающие чувства в русском, английском и таджикском языках: Дисс. канд. филол. наук. – М., 2013.

<sup>6</sup> Рахматуллаев Ш.У. Об одной особенности грамматической структуры фразеологических единиц в современном узбекском языке // Вопросы фразеологии. Труды Самаркандского гос. ун-та, новая серия, вып. 106, 1961; Рафиев А. Ўзбек тили фразеологик бирликларнинг структурал-функционал хусусиятлари. Филол. фанл. док...дисс. автореф. – Тошкент, 1982; Умарходжаев М.И. Основы фразеографии / Андиж. гос. пед. ин-т языков. – Ташкент: Фан, 1983; Ганиев А.Г. Очерки по глагольной фразеологии литературного пушту (в свете современной теории устойчивых словосочетаний). –Ташкент: Фан, 1985; Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари: Дисс. ...д-ра. филол.наук. – Тошкент, 1991; Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1993;

В узбекском китаеведении исследования, посвящённые фразеологизмам, представлены трудами С. Носировой, С. Мустафаевой, Т. Акимова, Ф. Хасановой и У. Мавляновой<sup>7</sup>. Вопросы передачи фразеологических единиц при переводе освещены в работах таких переводоведов, как Г. Саломов, Ж. Шарипов, Х. Хамидов, Н. Исматуллаева и С. Саидакбарова<sup>8</sup>.

«汉乌俄成语词典» (Китайско-узбекско-русский фразеологический словарь)<sup>9</sup>, составленный узбекскими китаеводами Т. Акимовым и Ж. Кираубаевым, стал первым шагом в изучении китайской фразеологии в Узбекистане. Кроме того, составленный Ли Ямэй и О. Очиловым «Узбекско-китайский и китайско-узбекский словарь пословиц, поговорок и фразеологических выражений»<sup>10</sup> также служит ценным источником для изучения фразеологизмов. Наряду с этим, одной из актуальных задач узбекского китаеведения остаётся углубленное исследование проблем передачи китайских фразеологических единиц в художественном переводе.

**Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация.** Данная диссертация выполнена в рамках научно-исследовательского плана Ташкентского государственного университета востоковедения по направлениям «Изучение языков стран Востока и теоретические вопросы языкознания», а также «Актуальные проблемы переводоведения, сопоставительного языкознания и лингвокультурологии».

**Цель исследования** заключается в выявлении особенностей передачи в переводе таких явлений, как вариативность, полисемия, синонимия и антонимия в глагольных фразеологизмах китайского языка на примере произведения Мо Яня «Страна вина», а также в раскрытии специфики перевода глагольных фразеологических единиц, имеющих и не имеющих эквиваленты в языке.

**Задачи исследования** заключаются в следующем:

выявить способы передачи вариативности и полисемии глагольных фразеологизмов, встречающихся в произведении Мо Яня «Страна вина»;

раскрыть особенности передачи в переводе явлений синонимии и антонимии в глагольных фразеологических единицах данного произведения;

---

Усмонова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1998; Халикова М.К. Фразеология как форма отражения национального менталитета в языковой картине мира: (на материале русского и узбекского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1999; Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Ганиева Ш.А. Ўзбек фразеологизмлари структураси (шаклий ва мазмуний моделлаштириш): Автореф. дисс. фил.фан.б.фал.док. (PhD). – Фарғона, 2017; Болтаева Б.И. Ўзбек тили фразеологик бирликларининг трансформацияси. (семантик-прагматик таҳлил): Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 2019.

<sup>7</sup> Насирова С. Ҳозирги хитой тилининг ижтимоий-сиёсий терминологияси: генезис ва тараққиёт. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2023; Мустафаева С. Хитой тили тилшунослик терминлари тизимининг шаклланиши ва тараққиёти. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2023; Акимов Т. Хитой тилидаги соматик фразеологизмлар. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2023; Хасанова Ф. Хитой байхуа тилининг лексик-семантик ва грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2023; Мавлянова У. Хитой тилида сонларнинг семантикаси: лингвомаданий таҳлил. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2023.

<sup>8</sup> Саломов Ф. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966; Шарипов Ж. Бадий таржима дўстлик қуроли. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974; Хамидов Х.Х. Турк фразеологияси масалалари. Монография. – Тошкент: Баёз, 2019; Исматуллаева Н.Р. Хитой ва ўзбек тилларида лақналар. – Тошкент: Nodirabegim, 2021; Саидакбарова С.П. Инглиз ва ўзбек лингвомаданиятида гастрономик фразеологизмлар. – Тошкент: Effect-D, 2022.

<sup>9</sup> Akimov T., Kiraubayev J.A. Xitoycha-o'zbekcha-ruscha frazeologik lug'at. – Toshkent: 2002.

<sup>10</sup> Li Yamei va O.Ochilov. O'zbekcha-xitoycha va xitoycha-o'zbekcha maqol, matla, iboralar lug'ati. – Pekin: Xalq nashriyot, 2011.

обосновать специфику перевода глагольных фразеологизмов, имеющих эквиваленты и аналоги в китайском и узбекском языках;

определить методы передачи в переводе глагольных фразеологических единиц, не имеющих эквивалентов.

**Объект исследования** роман Мо Яня «Страна вина», опубликованный в 2004 году, а также глагольные фразеологизмы, представленные в его узбекском переводе, выполненном А. Файзулло и С. Алижановой в 2018 году.

**Предмет исследования** – способы передачи глагольных фразеологизмов, представленных в китайском произведении «Страна вина», в узбекском переводе.

**Методы исследования.** При освещении темы диссертации использовались методы описательного, классификационного, статистического, сравнительного, когнитивного и лингвокультурного анализа.

**Научная новизна исследования** заключается в следующем:

выявлено, что для передачи китайских вариантных глагольных фразеологизмов на узбекский язык применяется идентичный перевод, а в условиях полисемии - контекстуальный перевод;

обосновано, что глагольные фразеологизмы обладают синонимическими соответствиями по семантическим, экспрессивно-стилистическим и функциональным признакам, а также имеют логические и семантические антонимические формы при выражении противоположных значений;

установлено, что количество глагольных фразеологизмов китайского языка, имеющих эквиваленты или аналоги в узбекском языке, ограничено и они не всегда передаются в форме фразеологической единицы с глаголом в переводе;

доказано, что перевод китайских глагольных фразеологизмов, не имеющих эквивалентов в узбекском языке, осуществляется с помощью таких приёмов, как дословный перевод, экспликация, добавление информации, опущение элементов и подбор лексических синонимов.

**Практические результаты исследования** заключается в следующем:

выводы, полученные в результате изучения семантических и переводческих особенностей китайских глагольных фразеологизмов, представляют собой важный научно-теоретический материал для области фразеологии и способствуют совершенствованию учебников и учебно-методических пособий по таким дисциплинам, как теория языкознания, лексикология, лексикография, переводоведение и лингвокультурология;

сопоставительный анализ глагольных фразеологических единиц способствует выявлению своеобразия мировоззрения и восприятия мира двух народов, а также служит основой для формирования у изучающих язык компетенции в понимании фразеологического значения.

**Достоверность результатов исследования** объясняется четкой постановкой проблемы, обоснованностью полученных выводов, применением надежных подходов, методов и теоретических сведений, основанных на авторитетных источниках, а также обоснованным характером привлеченного языкового материала. Достоверность подтверждается внедрением представленных анализов, выводов, предложений и рекомендаций в практику, а также признанием полученных результатов компетентными организациями.

### **Научная и практическая значимость результатов исследования.**

Научная значимость результатов исследования определяется тем, что фразеологические единицы китайского языка рассматриваются в различных аспектах, а полученные выводы дополняют научно-теоретические представления, связанные с переводоведением, фразеологией, синтаксисом и изучением языка как системы. Кроме того, исследование обогащает теоретические положения, касающиеся формирования фразеологизмов.

